

8

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**



Ro‘yxatga olindi: № BD 60211300-1.24

XORSHUNOSLIK

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: *200 000 — San‘at va gumanitar fanlar*

Ta‘lim sohasi: *210 000 — San‘at*

Ta‘lim yo‘nalishi: *60211300 — Dirijyorlik: akademik xor dirijyorligi*

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi XSHK1102	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xorshunoslik	30	30	60
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>“Xorshunoslik” asosiy fanning maqsadi — talabalarni kasbiy tayyorgarligi nazariy va amaliy jihatdan amaliy va o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlash. Xorshunoslik asoslari, xor jamoalari bilan ishlashning uslubiy, tashkiliy-ijodiy tamoyil va usullari to‘g‘risida bilimlarni shakllantirish.</p> <p>Fanning vazifasi — talabalar tomonidan xor san’atining nazariy asoslari, xor yozuvini o‘ziga xos xususiyatlari va uning ohangdorligi to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirish. Xor asarini yaxlit tahlil qilish asoslari bilan tanishish. Talabalarning kelajakdagi amaliy faoliyatiga hissa qo‘shadigan xor jamoalari bilan ishlashning uslubiy, tashkiliy va ijodiy tamoyillari va usullarini o‘rganish.</p> <p>II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlar) Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p>1-mavzu: Xor san’atining rivojlanishi. O‘zbekistonda xor san’atining shakllanishi va uning ahamiyati.</p> <p>Xor san’atining rivojlanishi Xor ijrochiligi yosh avlodda kuylash ko‘nikmasini shakllantirish mamlakatdagi musiqiy va umumiy madaniyatidagi o‘rni va badiiy didni shakllantirish. O‘zbekistonda xor san’atining paydo bo‘lishi va uning rivojlanish bosqichlari.</p> <p>2-mavzu: Xor janrlari va xor jamoalari .</p> <p>Jamoa qo‘shig‘i, xor miniatyurasi, yirik shakldagi xor asarlar, kantata-oratoriya va opera xor janrlari bilan tanishish. Xor jamoalari turlari-akademik, xalq, opera xor jamoalarini aniqlash.</p> <p>3-mavzu: Xorning turi va ko‘rinishi. Xor partiyalari va ularni tashkil qiluvchi ovozlar.</p> <p>Xor turi kuylovchi ovozlar guruhlardagi ijrochilar tarkibi bo‘yicha aniqlash. Bir guruh</p>			

va aralash ovozlardan tashkil topgan xor. Xonandalar soni tarkibiga ko‘ra tarkiblari turi. Ijrochilik faoliyatiga ko‘ra xor ko‘rinishlari. Xor partiyalari va ularni tashkil qiluvchi ovozlardan tanishish va ularni o‘rganish.

4-mavzu: Vokal texnik ko‘nikmalari haqida.

Xor uchun ovoz sozlash mashqlari qo‘shiqchilik nafasining asosiy shartlari: nafasni keragidan ortiq olmaslik, nafasni to‘g‘ri taqsimlash, qoldiq nafas bilan kuylamaslik, shovqinsiz nafas olish, kuylash davomida ushlab turuvchi qorin va pastki qovurg‘a mushaklarini bo‘shashtirmaslik. Ovoz sozlash mashqlarini asarning texnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi. Tovush va nafas holatini ushlash uchun mashqlar, talaffuz uchun mashqlar, kuychanlikni rivojlantiruvchi mashqlar, registrlarni tekislash uchun mashqlar va harakatchanlikni oshirish uchun mashqlar qo‘llaniladi.

5-mavzu: Xor sozi va ansambl.

Soz turlari - gorizontaal, vertikal, polifonik. Mukammal sozga erishish yo‘llari. Intonatsiya sofligining xor vokal malakalariga bog‘liqligi. Tabiiy va sun‘iy ansambl. Xor ansamblining asosiy turlari: ritmik ansambl, metroritmik ansambl (vazn – usulli), dinamik ansambl, agogik ansambl, tembrli ansambl, diksion – orfoepik ansambl, unison ansambl, garmonik yoki vertikal ansambl, polifonik ansambl, fakturaga ko‘ra ansambl, to‘liq, yarim, noto‘liq ansambl.

6-mavzu: Xorda ijrochilikda diksiya va orfoepiyaning ahamiyati.

Diksiya – bu matn talaffuzining aniqligi va tushunarliqligi, to‘g‘riligidir. Orfoepiya qoidalari. Artikulyatsiya asosiy qoidalari va usullari, unli va unsiz tovushlar ahamiyati va bo‘g‘inlarga to‘g‘ri urg‘u berish.

7-mavzu: Musiqiy ifodaviy vositalar va xor asarlarining tahlili.

Musiqiy shtrixlar: legato, non legato, marcato, staccato. Nyuans tavsifi, ko‘rinishlari, asosiy funksional darajasi, bezak sifati o‘rnida ishlatish, asar mazmunini ochib berishdagi ahamiyati. Partitura ustida ishlash. Xor asarlar partiturasini tahlili.

8-mavzu: Bolalar va havaskor xor jamoalari bilan ishlash.

Bolalar va havaskor xor jamoasi bilan ishlashning ahamiyati va uning usullari. Xor asarlar tinglash usuli. Vokal mashqlari. Bolalarni yoshlariga ko‘ra guruhlariga ajratish. Bolalar va havaskor xor jamoalariga dasturlarni to‘g‘ri tanlash.

Xorshunoslik fanidan seminar mashg‘ulotlar o‘quv rejada ko‘rsatilgan turi bo‘yicha o‘tkaziladi.

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O‘zbekistonda xor san’atining shakllanishi va uning ahamiyati.
2. Xor janrlari va xor jamoalari.
3. Xorning turi va ko‘rinishi. Xor partiyalari va ularni tashkil qiluvchi ovozlari.
4. Xor sozi va ansambl. Xor ijrochiligida orfoepiyaning ahamiyati
5. Vokal texnik ko‘nikmalar haqida.
6. Musiqiy ifodaviy vositalar va xor asarlarining tahlili.
7. Bolalar va havaskor xor jamoalari bilan ishlash.

III. Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta’limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o‘quv qo‘llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (maqolalar)dagi fanlarga oid bo‘limlar va mavzularni o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularini chuqur o‘rganish;
- faol o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari (ishbilar o‘yinlar, diskussiyalar, seminarlar va b.).

Mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni axborot – ta’lim resurslaridan, fonoteka va videoteka jamg‘armasidan, repetitoriyalardan, konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

1. Xorshunoslik kursining nazariy asoslarini o‘zlashtirish
2. Xor ovozlari, xorning ijrochilik va vokal texnik imkoniyatlarini tavsiflab berish
3. Xor asarlari misolida ansambl, intonatsiya, hamda vokal-xor murakkabliklarni aniqlash
4. Xor fakturasi tahlili, partitura bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish
5. Bolalar va havaskor xor jamoalari bilan ishlashning uslubiy asoslari bilan tanishuv

3.	<p style="text-align: center;">V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • chet el mamlakatlari davlatlarida xor san’atining rivojlanish tarixi; • O‘zbekistonda xor madaniyatining rivojlanish bosqichlari; • xorshunoslikning nazariy asoslari: janrlar, xor turi va ko‘rinishi, vokal va xor ovozlarning tasnifi, ularning diapazonlari va registr tuzilishini <i>bilishi kerak</i>; • partituralar bo‘limlari bo‘yicha xor tahlili: tuzilishi, ansambl, diksiya, orfoepiya, temp, dinamika; • asarning mazmunini aniqlash maqsadida musiqiy tilining xususiyatlarini tahlil qilish; • bolalar va havaskorlik xor jamoalari bilan ishlash <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i>; • xor partiturasining ansambl, intonatsiya, shuningdek, vokal va xor qiyinchiliklarini hamda ularni bartaraf etish usullarini aniqlash; • partituraning o‘rganish va uni xor bilan ishlashga tayyorlash <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob); • interfaol “Keys-stadi” texnologiyasi; • guruhlarda ishlash; • jamoa bo‘lib ishlash.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Mavzuga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘liq bilish, tahlil natijalarini aniq aks ettirish, o‘rganilayotgan jarayonlar va kurslarni mustaqil ravishda kuzatish. Oraliq va yakuniy nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda og‘zaki savol-javob, test orqali o‘tkazilishi mumkin.</p> <p style="text-align: center;">Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar.</p> <p>Talabalar bilimni nazorat qilish o‘quv rejaga muvofiq belgilangan.</p> <p>Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat 2-semestrda o‘tkaziladi.</p> <p>- Oraliq nazorati 2-semestr davomida fan dasturining tegishli bo‘limi yakunlangandan so‘ng, talabalarning nazariy bilim va ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi.</p>

	<p>- Yakuniy nazorat turi 2-semestr yakunida, semestr davomida o‘tilgan barcha mavzularni qamrab olib, talabalarning nazariy bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini baholash maqsadida 3 ta savoldan iborat bilet tortish nazorati o‘tkaziladi</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kadirova S.P.- Xorshunoslik T. “Musiq” 2019 (Darslik) 2. Дмитриевский Г. А. Хороведение и управление хором. Элементарный курс: учебное пособие / Г. А. Дмитриевский. — 8-е изд., стер.-Санкт-Петербург: Лань: ПЛАНЕТА МУЗЫКИ, 2020. 3. Чесноков П. Г. Хор и управление им : учебное пособие / П. Г. Чесноков. —6-е изд., стер. — Санкт Петербург : Лань : ПЛАНЕТА МУЗЫКИ, 2020(учебное пособие) 4. Живов В.Л. Хоровое исполнительство: Теория. Методика. Практика: учебное пособие для вузов – М.2003 (учебное пособие) <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Sh.M.Mirziyoyev. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60. 28.01. 2022 2. Sh.M.Mirziyoyev. Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-4730 26.05. 2020 3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-4038 28.11. 2018 4.Богданов Т.С. « Основы хороведения» – Р.2001 5.История вокально-хорового исполнительства в Узбекистане Т.,1991. (учебное пособие) 6.Kadirova S.P.- Xorshunoslik boshlang‘ich kursi T. “Musiq” 2015 (o‘quv qo‘llanma) 7.Казачков С.А. «От урока к концерту» Казань – 1990 8. Краснощеков В. «Вопросы хороведения»- М. 1998 (учебное пособие) 9.Кузнецов Ю.М. «Практическое хороведение. Учебный курс хороведения». — М.: 2009. 10. Mansurova G. Xorshunoslik T., 2008 (o‘quv qo‘llanma) 11. Мосягина Л.А. «Хороведение и методика работы с хором» Тверь 2002 (учебное пособие) <p>Axborot manbalari</p>

	<p>1. http:// www.notes.tarakanov.net 2. https://ale07.ru/music/notes/song/chorus/chorus_notes.htm 3. http:// www.imslp.org 4. http:// www.operascores.ucoz.com 5. http://www.vnotke.com 6. http://www.classic-music.ru 7. http:// www.mus-info.ru 8. http:// www.wikipedia.org</p>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «<u>29</u>» <u>08</u> dagi <u>1</u> — sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: G.A.Xaydarova — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida o'qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchilar: S.P.Kadirova — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida professori G.Sh.Mansurova – R.Glier nomidagi RIMM "Xor dirijyorligi" bo'limi boshlig'i, dotsent</p>

